



O'QUVCHILARNI MILLIY MUMTOZ MUSIQA SAN'ATI ORQALI ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISH.

Toshtemirova Mashxura Zokirjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti magistratura
bo'limi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17862381>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 05-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 09-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

estetika, musiqa, ashula,
qo'shiq, shashmaqom, ta'lim,
axloq..

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini milliy mumtoz musiqa san'ati orqali estetik didini rivojlantirish haqida bayon etilgan. Milliy mumtoz musiqaning inson ongiga ta'sirining ijobiy taraflari yoritilgan. Milliy kuy – qo'shiqlarning ta'sir darajasi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Jahonning bugungi globallashuv jarayonida eng dolzarb vazifalaridan biri, eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalashdir. Estetik didni rivojlantirish - bu insonning go'zallikni anglash va tushunish qobiliyatini shakllantirish jarayoni bo'lib, ayniqsa, musiqa san'ati sohasida unga ta'sir etadigan omillardan biri milliy mumtoz musiqalaridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda mumtoz musiqaning roli beqiyosdir. Milliy mumtoz musiqa san'atimiz o'zining xilma-xilligi, rang-barangligi, ma'nosi va tarixi bilan nafaqat musiqiy bilimlarni kengaytiradi, balki o'quvchilarda estetik sezgilarni shakllantiradi.

Mumtoz musiqalarimiz nafaqat milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, balki u yosh avlodni hayotga va san'atga nisbatan to'g'ri estetik munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Shuning uchun ham umumta'lim maktablarida milliy mumtoz musiqa orqali o'quvchilar estetik didini rivojlantirishning pedagogik metodlarini ishlab chiqish, o'rganish va uni amaliyotga tabdiq etish bugunnig dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

“Estetika falsafiy fandır. Falsafa – tafakkur gulshani, ma'naviyat bog'i. Falsafa fani – haq yo'lga o'rgatuvchi ta'limot, dunyo qarashni shakllantiruvchi, odam va olamni bilish ilmidir. Falsafiy fanlar – Etika (axloqshunoslik) vijdoniylik, pok, halol bo'lishni o'rgatsa, Estetika (nafosatshunoslik) esa go'zallik haqida bilim beruvchi fandır.”¹ Darhaqiqat, biz pedagoglar avvalambor o'quvchilarni ichki dunyosini sof, beg'ubor, vatanparvarlik tuyg'usi bilan shakllanishiga to'g'ri yo'l ko'rsatib, ularga amaliy yordam bera olsak, kelajakda o'quvchilar jamiyatda o'z o'rnini topishi oson, vatan ravnaqiga munosib xissa qo'shadigan farzand bo'lib yetishadilar. Bu borada milliy mumtoz musiqa san'atimizni tinglash, tahlil qilish va uni anglash kabi tamoyillarni ko'rib chiqishimiz lozim.

¹ Estetika asoslari. E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyx'o'jayeva. Toshkent-2010. 8-bet.

- 1. Milliy mumtoz musiqalar vazmin** - bu tinglovchilarni ruhiyatini sokinlashtiradi;
- 2. Milliy mumtoz musiqalar tarixiy** - bu tinlovchini o'tmish zamon bilan bevosita bog'lanishida ahamiyatli;
- 3. Milliy mumtoz ashulalar** - bu tinglovchini ma'naviy dunyosini shakllantiradi;
- 4. Milliy mumtoz qo'shiqlar** - bu tinglovchini tafakkurini kengaytiradi;

Milliy mumtoz musiqalarning vazminligini quyidagicha izohlash mumkin: o'quvchilar uni tinglash davomida asarning ritm jihatidan vazminligi, undagi cholg'u asboblarning ovozi aslligi, musiqiy - nazariy jihatdan mukammalligi bilan ruhiyati sokinlashadi. Hozirgi ijtimoiy tarmoqlar orqali, ommaviy madaniyat ta'siridagi zamonaviy kuy - qo'shiqlar aksariyat ritmik qo'pol, ovozlarning sun'iyliigi, nazariy jihatdan eshitilishi yoqimsizligi tufayli tinglovchilarni chalg'ituvchi omillarga ega.

Milliy mumtoz musiqalar tarixiyligini quyida qisqacha aytish mumkin: tarixdan ma'lum - ki, barcha mutafakkir bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz barchasi diniy hamda dunyoviy ilmlarni puhta egallaganlar. Ular ijod etgan, yaratgan asarlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Masalan, milliy musiqiy merosimiz hisoblanmish "Shashmaqom"ga to'htalsak. Shashmaqom - olti maqomdan iborat: "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq"lardan iborat.

Buzruk - katta, buyuk. Bunda ilohiyotga bog'lagan holda "payg'ambar"larga ishorat qilinadi.

Rost - to'g'ri so'zlik, haqgo'ylik.

Navo - kuylash, qiroat qilish.

Dugoh - ya'ni ikki parda.

Segoh - ya'ni uch parda.

Iroq - uzoqda, ya'ni arab mamlakatlari.

Milliy mumtoz ashulalarda asosan falsafiy, shakl jihatidan chuqur ma'nolarni o'zida mujassam etgan g'azallardan, ruboiy va she'rlardan foydalanilgan.

"O'zbek mumtoz ashulachilik san'ati mohiyatan o'laroq inson omilini tadqiq qilish va dunyo qarashlarini badiiy o'zlashtirishning muhim tamoyillaridan hisoblanib, insonni ruhiy, axloqiy kamolotining shakllanishida, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida yetakchi tarmoqlardan biridir"²- deya izoh berilgan.

Milliy mumtoz qo'shiqlarni eshitib kuylab kelayotgan yosh avlodlarni har tomonlama mukammal bo'lishlarida, ularni kelajakdagi o'zlari tanlagan mutaxassislik yo'nalishlari orqali jamiyatga kerakli shaxs bo'lib kamol topishlarida katta ko'makdir. Milliy mumtoz qo'shiqlar o'z ohangi bilan mashxurdir. Ulardagi ijro qilinayotgan milliy cholg'ularimizning o'rni beqiyosdir, tinglayotgan tinglovchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va aytim jarayonidagi so'zlarining ma'nolari ham tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Milliy kuy - qo'shiqlarimiz millatimizga, milliyligimizga bo'lgan muhabbatni shakllantiradi. Tug'iliboq ona allasi bilan ulg'aygan har bir bola alla ohangi, undagi hayotni go'zalligini his qilib ulg'ayadi. Milliy merosimizni, qadiryatlarimizni, milliy mumtoz kuy va qo'shiqlarimizni abadiy davom etilishiga katta imkon bo'ladi.

² Q.Toshtemirov. ADPI Ilmiy xabarnomasi №2_2023 36-b.

Har bir millatning o'z urf – odatlari bordir, ularning o'tkaziladigan marosimlari orqali o'sha yurtning milliy kuy qo'shiqlari, milliy cholg'ulari orqali orzu – umudlari, zavq – shavq, quvonch – u, shodliklari, g'am – g'ussalari, iztiroblari aks etadi.

O'zbek xalqi ham o'z an'analari bilan ajralib turadi, qolaversa xalqimizning yosh avlodlarga bo'lgan mehr muhabbati cheksizdir. Farzand tarbiyasiga, uning dunyo qarashini, estetik, etik jihatlari shakllanishida faqatgina oilaning o'rni kamlik qiladi. Bunda unga yon atrofida, jamiyatda bo'layotgan voqeliklar, ham bevosita, ham bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy hayotda tevarak atrof bilan munosabat, madaniyatning turli shakllariga ilk yoshlik, bolalik davrlarida ko'z o'ngida ko'rgan voqeliklar asosida o'zlashtiradi. Masalan, bolalar uchun mavsumiy bayramlar, umumxalq sayllarida aytiladigan qo'shiqlarni aytishimiz mumkin. Demak, mavsumiy qo'shiqlarga "Binafsha", "Lolacha", "Qure - qure", "Sust hotin", "Oq terakmi, ko'k terak" kabi bir qanchalarini aytish mumkin. Bu qo'shiqlar orqali bolalar tabiat bilan yaqindan tanishadilar, uni asrab avaylash kabi munosabatlarini, o'zini tabiatning bir qismi ekanliklarini anglaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Eстетика asoslari. E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxoyeva. Toshkent-2010.
- 2.Q.Toshtemirov. ADPI Ilmiy xabarnomasi №2_2023 36-b.
- 3.Etika. Estetika. G.Nosirxoyeva. Toshkent-2006.
- 4.O'zbek musiqa tarixi. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. Toshkent-2018.

INNOVATIVE
ACADEMY